



Ma‘Lumotlarni Fine Reader Dasturi Yordamida Aniqlash va Tahrirlashni O‘Rgatuvchi Virtual Ko‘Rgazma

Matkarimov Jasurbek Abdumannovich

Andijon davlat universiteti, tayanch doktoranti

mja_1985@mail.ru

+998(91) 169 66 59

Аннотация: Ushbu maqolada talabalarda virtual ko‘rgazmalardan foydalanishni rivojlantirish haqida ma‘lumotlar berilgan. Ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi virtual ko‘rgazma dasturi yoritilgan. O‘quv mashg‘ulotlarini mazmunli tashkil qilishda raqamlı axborot texnologiyalaridan foydalanish, o‘qituvchi va talabalarga o‘ziga xos qulayliklar yaratish bo‘yicha nazariy ko‘rsatmalar berilgan.

Калим сўзлар: skaner, fine reader, kompyuter, virtual ko‘rgazmalar, raqamli texnologiyalar, multimedia, virtual borliq, vizual.

Raqamli texnologiyalar rivojlangani sari jamiyatni takomillashtirishda elektron o‘quv qo‘llanmalar, elektron darsliklar va o‘rgatuvchi dasturlar, virtual laboratoriyalarning o‘rni kattadir. Elektron o‘quv qo‘llanma, kitoblar, o‘rgatuvchi virtual ko‘rgazmalar, virtual laboratoriyalarni yaratish va uni o‘quv jarayoniga qo‘llash orqali talabalarga fanga bo‘lgan qiziqishlarini ortishi, fanni to‘liq o‘rganishi va olgan bilimlarini mastahkamlashiga erishish mumkin. O‘tilayotgan fan mavzularini murakkab murakkab qismlarini tushuntirishda virtual texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Jamiyatimizning barcha yo‘nalishlarida foydalanilayotgan texnik (hard ware) va dasturiy (soft ware) ta‘minotlar foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Yaratilayotgan barcha zamonaviy texnologiyalar ish faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Ko‘pchilikga ma‘lum hozirda faoliyat yuritayotgan korhona, muassasalar turli hildagi hujjatlarni nusxalash, kompyuterga kiritish (skaner orqali) kabi ishlarni olib boradilar. Ma‘lumotlarni turli usullarda tahrirlash ularni qayta ishlashga mo‘ljallangan dasturiy resurslar ishlab chiqilgan ammo hamma foydalanuvchilar ham bu dasturlarni ishlata olmasligi ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun bu sohada talablarga mos o‘rgatuvchi video darslar, elektron darsliklar, virtual ko‘rgazmalar sonini ko‘paytirish orqali ijobjiy natijalar olishimiz mumkin. Ta‘lim jarayoniga ham yuqorida ta‘kidlab o‘tgan innovatsion texnologiyalarni jalb qilish ta‘lim sifatini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Virtual ko‘rgazmalar bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, nazariy olgan bilimlarini rivojlantirishga va qo‘sishma ma‘lumotlar bilan ta‘minlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Virtual ko‘rgazmalarni yaratishda zaruriy dastur vositalarini qo‘llash orqali ularda ishslash ko‘nikmalarini oshirish va olingan bilimlarni mustahkamlash. Bundan tashqari o‘quv jaryoniga ushu yaratilgan virtual ko‘rgazmalar to‘plamini qo‘llab, talabalarda tasavvurni kuchaytirish, kompyuter qurilmasi va dastur ta‘minoti bilan ishslash ko‘nikmasini hamda undagi ob‘ektlarni aniqlash turlarini o‘rgatishdir.



Bundan tashqari o‘quvchilarning ta‘lim olishida virtual ko‘rgazmalar yordamida laboratoriya ishini bajarish, bilimni mustaxkamlash, o‘zlashtirish darajasini tekshirish va nazorat qilish mumkin bo‘ladi. Virtual ko‘rgazmalarni yaratish uchun quyidagi dasturlardan foydalanishimiz mumkin: 1. Macromedia Flash 2. Prezi 3. Autoplay.



1-rasm. Virtual ko‘rgazmaning bosh sahifasi

Bu dasturning umumiy ko‘rinishi bo‘lib, undan dasturning ichki qismlariga o‘tish mumkin. Buning uchun ko‘rsatkich tugmasini bosamiz va quyidagi asosiy oyna hosil bo‘ladi.

Virtual stendlar

- Fine Reader dasturida malumotlarni skanerlash**
- Skanerlangan ma'lumotlarni matn sifatida aniqlash**
- Skanerlangan ma'lumotlarni rasm sifatida aniqlash**
- Skanerlangan ma'lumotlarni jadval sifatida aniqlash**
- Ma'lumotlarni barcha turdag'i holatini belgilanishi**
- Belgilangan malumotlarni aniqlash (распознат)**
- Xatolarni tekshirish (праверит)**
- Nazariy ma'lumotlar**

2-rasm. Virtual ko‘rgazmaning bo‘limlari

Har bir bo‘limda mavzuga oid bo‘lgan amallar ketma-ketligi animatsiyali tugmalar orqali ko‘rsatib turiladi. Foydalanuvchi berilgan buyruqlarga asosan ishlarni amalga oshiradi. Nazariy ma‘lu’otlar bo‘limida skanerlar, ularning tiplari, Fine Reader dasturi vazifasi va imkoniyatlari hamda Fine Reader dasturida ishlash texnologiyasi bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘qib o‘rganish mumkin. Virtual ko‘rgazmada 8 ta ketma-ket keluvchi virtual stendlar nomi keltirilgan bo‘lib, ularni tanlash orqali ishga tushiramiz. Virtual ko‘rgazmalar dinamik holatda ishlaydi, yani foydalanuvchilarga buyruqlarni to‘g‘ri tanlashni o‘rgatadi. Ushbu virtual stendlar foydalanuvchilarda skaner qurilmasi



bilan ishlash va undagi ob‘ektlarni aniqlashda yaqindan yordam beradi.

Xulosa. Hozirgi vaqtida ta‘lim jarayonini avtomatlashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Jamiyatimiz ravnaqi, hayotimiz istiqboli, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning zamonaviy axborot texnologiyalaridan amaliy faoliyatda qay darajada foydalana olishiga bog’liq. Bu muammolar barcha ta‘lim muassasalari ta‘lim tizimining shakli va mazmunini yangilashni kun tartibiga qo‘ydi. Ta‘lim tizimidagi yangilanish jarayoni informatika va unga daxldor fanlarni o‘ziga xos usullar bilan o‘qitishni taqozo etmoqda. Zero, bo‘lajak mutaxassis, u qaysi sohada ishlashidan qat’iy nazar, o‘z vazifasini zamon talabi darajasida bajarish uchun axborotga ishlov beruvchi vositalarni, ularni ishlatish uslubiyotini bilish va ularda ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish lozim. Binobarin, tub islohotlarni amalga oshirish, bozor munosabatlarini shakllantirish eng avvalo kadrlarning zamonaviy axborot texnologiyalarini qay darajada bilishlariga bog’liq bo‘lib qoldi.

Jamiyatni axborotlashtirish ta‘limni kompyuterlashtirishdan boshlanadi. Bu o‘rinda, elektron o‘quv adabiyotlar alohida o‘rin tutadi. Hozirgi kunda respublikamizda va xorijda turli fanlarni o‘rgatishga mo‘ljallangan o‘quv adabiyotlar, shu jumladan, multimediali elektron darsliklar va virtual ko‘rgazmalar yaratilib ta‘lim amaliyotida keng qo‘llanilmoqda.

Адабиётлар:

1. Роберт И.В Современные информационные технологии в образовании: дидактические проблемы; перспективы использования. М.:ИИО РАО, 2010.-С. 140.
2. Пак Н. И. Информационный подход и электронные средства обучения: монография Красноярск: РИО КГПУ, 2013.
3. Matkarimov, J. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARNING VIRTUAL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(3), 5-7.
4. Matkarimov, J. A. "TALABALARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH." 6-сан: 374.